

THEORY OF URANIUM FORMATION IN THE TOLANTASH PLACE

Yusupov Dilshod Mirza ugli

University of Geological Sciences

Master's student of the Department of General Geology

e-mail: ydilshod72@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20154126>

TO'LANTOSH MAYONI URANNING PAYDO BO'LISH NAZARIYASI

Yusupov Dilshod Mirza O'g'li

Geologiya fanlari Universiteti

Umumiy geologiya kafedrası magistranti

e-mail: ydilshod72@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada To'lantosh maydoni hududidagi uran qanday yo'bilan bu hududga kelib qolgan yoritilgan. To'lantosh maydonidagi yoriqlarga e'tibor qaratilgan.

Annotation: The article describes how uranium entered the Tolantash field area. Special attention is paid to the fractures located within the Tolantash field.

Аннотация: В статье освещается путь попадания урана на территорию площади Толанташ. Особое внимание уделено трещинам (разломам), имеющимся на территории площади Толанташ.

Kalit so'zlar: Uran, radioaktiv eritmalar, Tomditov magmatik tanalari, nazariylar.

Keywords: Uranium, radioactive solutions, Tamdytau magmatic bodies, theories.

Ключевые слова: Уран, радиоактивные растворы, магматические тела Тамдытау, теории.

O'zbekiston uran zaxiralari va uni qazib olish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib, uni ishlab chiqarish Respublikamiz iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Bu qazilma turi strategik ahamiyatga ega bo'lib, uning xom-ashyo bazasini kengaytirish davlatimiz uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bunga misol qilib Fransiya, Italiya va Yaponiya kabi iqtisodiyoti yirik bo'lgan mamlakatlarning yurtimiz uranini harid qilishga bo'lgan qiziqishining kundan kunga ortib borayotganini keltirish mumkin. Shu sababdan yangi uran zahiralarini topishimiz va radioaktiv elementlar eksplotatsiyasi miqdorini oshirishimiz iqtisodiyotimiz uchun ahamiyatlidir.

To'lantosh maydonining o'rganilish tarixi uran va oltin konlarining ochilishi bilan bog'liqdir. Ya'ni bu hududda oltin va uran qidiruv ishlari bir vaqtda olib borilgan. Dastlabki qidiruv bosqichi 1940-1950- yillarda amalga oshirilgan, shu vaqtda asosiy e'tibor Paleozoy yoshidagi tog' jinslariga yotqiziqclariga qaratilgan. Uran konlarining kashf etilishi 1960-1970- yillarda bo'lgan. Shu yillarda ochilgan konlardan biri Uchquduq koni hisoblanadi. Keyinchalik "Qiziltepageologiya" ekspeditsiyasi tomonidan To'lantosh maydoni bo'ylab o'rganish ishlari olib borilgan. Geologiya-qidiruv ishlari natijasida Yuqori Bo'r davri yotqiziqclarida qatlam oksidlanish zonalari bilan bog'liq uran ma'danlashuvi belgilari aniqlandi. Batafsil qidiruv va baholash ishlari bosqichi 1980-2000 yillarda o'tkazilgan. Bu yillarda nafaqat To'lantosh hududida balki unga qo'shni hududlarda ham burg'ulash ishlari olib borilgan.

To'lantosh maydoni strukturaviy jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning shakillanishida tektonik jarayonlar muhim rol o'ynagan. Uran to'plamlarining ustidagi qopqoq vazifasini o'tovchi qatlam, suv o'tkazmaydigan va tektonik jarayonlar natijasida oson yorilib ketmaydigan bo'lishi yoki yorilgan taqdirda o'z shakliga yana qayta tiklana olishi juda muhim. To'lantosh koni yosh platformada joylashganligi sababli yuqorida ta'kidlangan xususiyatlar ushbu kon uchun ahamiyatli. To'lantosh ma'ydonida uran to'planishi uchun qatlamlarning ma'lum bir strukturalari mavjudligi juda muhim ahamiyatga ega. Maydonda tektonik

yoriqning mavjudligi va qatlamlarning g'ovakliligi radioaktiv eritmalarning aynan usha qulay hududlar bo'ylab cho'kib joylashishida yordam beradi.

Bilamizki uran hosil bo'lishining asosiy ikki xil nazariyasi mavjud bular; magmatic va cho'kindi holatiga o'tish yo'llari bilan. To'lantosh braxiantiklinalining yuqori qismida Paleozoy davrining granitlari bo'lishga qaramasdan biz ushbu hududdagi uran hosil bo'lishini bu granitlar bilan bo'lay olmaymiz. Bunga asosiy sabab qilib hududdagi asosiy uran zaxiralari terrigen jinslar(asosan qum va qumtoshlar) orasida joylashg'nligi bilan izohlashimiz mumkin. Ikkinchi sabab esa aksariyat uran hosilalari tektonik yoriqlar atrofida ekanligi bu uran zahirlarining cho'kmaga o'tish yo'li bilan hosil bo'lgan degan tahmini qo'llab quvvatlaydi. Aynan To'lantosh maydoniga yaqin bo'lgan Tomditov magmatik tanalarida aniqlangan radioaktiv anomalaiyalar ham ilmiy tahminimizni to'g'riligini isbotlaydi. Tomditov magmatizmi yozilgan adabiyotlarda quyidagicha izohlanadi "Metallogenik nugtai nazardan kompleks bo'r davrining qo'shni konlarida qumtosh turidagi uranning infiltratsion konlarini hosil qiluvchi radioaktiv elementlarni suyuqlikda eritib ajratib olnishi ob'ekt sifatida qiziqarli hisoblanadi"

Xulosa

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib shuni aytish mukinki, To'lantosh hududidagi uranning hosil bo'lishi Tomdiovdagi magmatik tanalardagi radioaktiv eritmalari bilan chambarchas bog'liq. Shu asosda urannig To'lantosh maydoniga kelishini turli xil nurash jarayonlari natijasida To'lantosh maydoniga kelgan deyishimiz mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov X.K., Babanorov N.S., Borovin K.G. va boshqalar. «Учкудукский тип урановых месторождений Республики Узбекистан» Toshkent 1996. «Fan» nashriyoti -334b.
2. «Рудные месторождения Узбекистана» Toshkent, Gidroingeo, 2001. -611b. 3. Pak A.I. «Геологическое строение и генезис Учкудукского уранового месторождения». Dissertatsiya. Toshkent 1964y -267b.
3. «O'zbekiston Atlasi 2025»